



RAW MATERIAL SOURCES FOR KHOREZM METALLURGY IN THE LATE MIDDLE AGES: AN ANALYSIS OF RUSSIAN AND LOCAL SOURCES

Bobur Baxramovich Ismailov

Teacher at the Department of History

Urganch State University

E-mail: bi.ismailov@gmail.com

Urganch, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Khorezm, metallurgy, raw material sources, Khiva Khanate, gold, silver, copper, historical sources.

Received: 22.08.25

Accepted: 23.08.25

Published: 24.08.25

Abstract: The article analyzes information about raw material sources for Khorezm metallurgy in the Late Middle Ages. It examines the works of Russian travelers, envoys, and statesmen of the 17th–early 20th centuries, as well as local authors, which describe gold, silver, copper, and other ore deposits in the Khiva Khanate. The sources indicate that metallurgical raw materials were obtained not only from local mines but also through foreign trade routes. The analysis reveals that Khorezm had stable sources of raw material supply for metallurgy during this period.

XORAZMNING SO‘NGGI O‘RTA ASRLARDAGI METALLSOZLIK SOHALARI XOM-ASHYO MANBALARI: RUS VA MAHALLIY MANBALAR TAHLILI

Bobur Baxramovich Ismailov

Tarix kafedrasi, o‘qituvchisi

Urganch davlat universiteti

E-mail: bi.ismailov@gmail.com

Urganch, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Xorazm, metallsozlik, xom-ashyo manbalari, Xiva xonligi, oltin, kumush, mis, tarixiy manbalar.

Annotatsiya: Maqolada Xorazmning so‘nggi o‘rta asrlardagi metallsozlik sohalari xom-ashyo manbalari haqidagi ma‘lumotlar tahlil etilgan. XVII–XX asrlar boshidagi rus sayohatchilari, elchilar va davlat arboblari asarlari, shuningdek mahalliy mualliflar asarlarida Xiva xonligi hududidagi oltin, kumush, mis va boshqa ruda konlari haqidagi

ma'lumotlar o'rganilgan. Manbalarda metall xom-ashyosi ichki konlardan tashqari tashqi savdo yo'nalishlari orqali ham kirib kelganligi qayd etilgan. Shuningdek, mahalliy va xorijiy manbalar orqali Xorazmda metallsozlik sohasi uchun zaruriy xom-ashyo manbalari doimiy ravishda ta'minlangani aniqlandi.

ИСТОЧНИКИ СЫРЬЯ ДЛЯ МЕТАЛЛУРГИИ ХОРЕЗМА В ПОЗДНЕМ СРЕДНЕВЕКОВЬЕ: АНАЛИЗ РУССКИХ И МЕСТНЫХ ИСТОЧНИКОВ

Бобур Бахрамович Исмаилов

Ургенчский государственный университет

преподаватель кафедры истории

E-mail: bi.ismailov@gmail.com

Ургенч, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Аннотация:
Хорезм, металлургия, источники сырья, Хивинское ханство, золото, серебро, медь, исторические источники.	В статье анализируются сведения об источниках сырья для металлургии Хорезма в позднем Средневековье. Изучены труды русских путешественников, послов и государственных деятелей XVII – начала XX вв., а также произведения местных авторов, содержащие информацию о золотых, серебряных, медных и других рудных месторождениях на территории Хивинского ханства. В источниках отмечается, что металлургическое сырьё поступало не только из местных рудников, но и через внешние торговые связи. Анализ показывает, что Хорезм в позднем Средневековье обладал устойчивыми каналами обеспечения металлургии сырьём.

Kirish. Xorazm tarixi davomida metallsozlik sohasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllangan. Ayniqsa, so'nggi o'rta asrlarda bu sohaning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan xom-ashyo manbalari nafaqat mahalliy konlardan, balki tashqi savdo yo'nalishlari orqali ham ta'minlangan. XVII–XX asrlar boshida rus manbalarining ko'payishi, shuningdek mahalliy mualliflar asarlaridagi ma'lumotlar bu davrdagi konchilik ishlari va metallsozlik sohasi haqida keng tasavvur hosil qilish imkonini yaratadi. Xususan, rus elchilari va sayohatchilarining kuzatuvlari, geografik xaritalari va tarixiy yozuvlari Xiva xonligi hududidagi oltin, kumush va mis konlari, ularning qayta ishlanishi va savdo yo'nalishlari haqida muhim ma'lumotlar taqdim etgan. Shu bilan birga, mahalliy mualliflar asarlari orqali Xorazmdagi

metallsozlikning ichki resurslar bilan ta'minlanish darajasi hamda iqtisodiy hayotdagi o'rnini anglash mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Metallsozlik sohasi va uning xom-ashyo manbalari haqidagi tadqiqotlar jahon tarixshunosligida ham, mahalliy tarixiy manbalarda ham muhim o'rin egallaydi. Rossiya imperiyasi davridagi davlat arboblari va sayohatchilar asarlari (F. Beneveniy, V.N. Tatishchev, E.I. Blankennagel, N. Muravyov va boshqalar) Xiva xonligidagi oltin, kumush va mis konlari haqida aniq ma'lumotlarni taqdim etadi. Masalan, D. Gladishev va I. Muravinlar tuzgan «Landkarta»da Shayxijalil tog'idagi oltin va kumush konlarining joylashuvi belgilangan. Shu bilan birga, mahalliy manbalardan Xudoyberdi ibn Qushmuhammad Xivaqiyning «Dili g'aroyib» asari va «Firdavs ul-iqbol» kabi yozma yodgorliklar Xorazmdagi qazilmalar haqidagi ma'lumotlarni to'ldiradi. Ilmiy tadqiqotlarda bu ma'lumotlar qiyosiy tahlil orqali uyg'un holda o'rganilganda, metallsozlik sohasi tarixining yanada yaxshiroq qirralari ochiladi.

Metodologik asos. Tadqiqot metodologiyasi tarixiy-tahliliy va qiyosiy yondashuvlarga asoslandi. Avvalo, rus elchilari, sayohatchilari va davlat arboblari asarlaridagi ma'lumotlar tarixiy manbashunoslik nuqtai nazaridan o'rganildi. Mahalliy mualliflar asarlari esa milliy tarixiy voqelikni aks ettiruvchi qimmatli manba sifatida tahlil etildi. Shuningdek, arxiv materiallari, geografik xaritalar va rus elchixonasi yozuvlari bilan mahalliy manbalar qiyosiy o'rganildi. Bundan tashqari, metallsozlik sohasiga oid ma'lumotlarni tizimli tarzda guruhlash va manbalar o'rtasidagi umumiylik va farqlarni aniqlash usulidan foydalanildi. Ushbu metodologik yondashuv Xorazmda metallsozlikning xom-ashyo manbalari haqida xolis va ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Xorazmning so'nggi o'rta asrlardagi metallsozlik sohalari xom-ashyo manbalari to'g'risidagi ma'lumotlar XVII-XX asrlar boshidagi rus manbalarida, qisman mahalliy mualliflar asarlarida yoritilgan. Bu davrdagi metallsozlik sohalari xom-ashyo manbalariga oid manbalardagi ma'lumotlarni shartli ravishda uch guruhga ajratishimiz mumkin.

- 1) Mahalliy xom-ashyo manbalariga oid manbalardagi ma'lumotlar.
- 2) Xorazmlik savdogarlar vositachiligida Rossiyaga chiqarilgan oltin, kumush quymalari va tangalari to'g'risidagi ma'lumotlar.
- 3) Xorazmga Rossiya, Eron, Buxoro va Sirdaryo bo'yidan keltirilgan metall xom-ashyosi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Mazkur manbalardagi ma'lumotlar Xorazmga oldingi davrlardagi metall xom-ashyosi kirib kelgan asosiy yo'nalishlarning so'nggi o'rta asrlarda ham davom etganligini ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu ma'lumotlar so'nggi o'rta asrlarda Xorazmda faqat tashqi savdo orqali keltirilgan temir, mis va boshqada metallar bilan kifoyalanmaganliklarini bildiradi.

Mahalliy xom–ashyo manbalariga oid ma'lumotlar. XVIII asrdan Chor Rossiyasining Sharqni egallash siyosati tufayli Xiva xonligining geografik joylashuvi, yer osti boyliklari haqidagi ma'lumotlarni o'rganish maqsadida ko'plab ekspeditsiyalar, elchilik safarlari uyushtirilgan. Rus sayoh va elchilari asarlarida Xiva xonligi xududidagi oltin, kumush va boshqada ruda konlari mavjudligi to'g'risida ba'zi ma'lumotlar berilgan. Ulardan 1713 yili Astraxanga borgan Xiva elchisi Xoja Nafas rus ma'murlariga Amudaryo qumlari oltinga boyligi, sohilda istiqomat qiluvchi aholi ko'p miqdorda oltin yuvib olayotganligini bildiradi[1].

Rossiya elchisi Florio Beneveniy (1721–1725 yillar) xatida “Xiva xonligi xududidagi Shayxijalil tog'ida kumush va boshqa rudalarning ko'pligi, xon uni olish uchun odamlar yuborganligi, ular bir bo'lak toshni xonga yetkazib, undan chiqqan kumush yarmidan ko'pini tashkil etganligi haqida” ma'lumot beriladi[2].

Rossiya imperiyasi davlat arboblardan V.N. Tatişevning (1686–1840 yy.) asarida ham ba'zi ma'lumotlar keltirilgan; “..... Sharqda Amudaryo sohillarida oltin teriladi (qumdan yuvib yoki elaklab olishi nazarda tutilgan). Orol dengizi shimolidagi tog'dan ham oltin olinadi (tog' nomi keltirilmaydi)”[3].

D.Gladishev va I Muravinlar tomonidan 1741–1742-yillarda tuzilgan «Landkartada» Shayxijalil tog'idagi oltin va kumush ruda konlarining geografik joylashuvi ko'rsatilgan[4]. Unda Sheldeltog'da (Shayxijalil tog'i) kumush va oltin konlari mavjud deya belgilangan. Muallifning og'zaki eshitgan ma'lumotlarini yozishicha, qazilgan rudalarni tekshirib qaraganlarida uning uchdan bir qismi sof oltin bo'lib chiqdi. Buni aniqlagan odam Sherg'ozixonga borib aytdi. Xon uni tiriklayin ko'mib tashlashni buyurdi, “toki u bu gapni boshqa birovga borib aytmasin, deb”.

Samaralik savdogar D.Rukavkin (1753-y.) ta'kidlashicha, Xiva xonligi xududida oltin rudasiga boy tog' bor. Lekin, uni qazib olishga hech kimga ruxsat etilmaydi, uning yaqinida rus asirlari tutqinlikda yashashadi, konchilik ishlarida asirlardan foydalanishadi. Bu ishga jalb qilinganlar kon joylashgan joyni sir tutishga qasamyod qilishgan [5]. 1793–1794-yillarda Xivada bo'lgan mayor Ye.I.Blankennagel yozishicha, Xiva xonligi oltin va kumush konlariga ega, ammo ularni qazib olish va qayta ishlov berish muommali masala hisoblanadi[6]. Ularga chetdan keltirilgan metall tannarxi arzon tushadi. Rus elchisi N.Muravev (1819–1820) ma'lumotlariga ko'ra, “xivaliklar hunarmandchilikda ko'p ham malakali emaslar. Umuman temir idish va buyumlarni yasamaydilar. Garchi mis o'sha joydagi konlardan qazib olinsa-da, undan buyumlar yasashni bilmaydilar” [7].

Mazkur ma'lumotlarda salbiy munosabatdagi fikr berilgan bo'lsada, ammo Xiva xonligida mis konlari borligi ta'kidlanadi.

Yuqoridagi mualliflardan tashqari, Buxoro amirining harbiy asiri F. Yefremov (1774–1782)[8], Mitropolit Xrisanf (1790)[9], V.V.Grigorev (1803 y.)[10] va boshqa manbalarda Xiva

xonligidagi Shayxijalil tog'ida oltin, kumush, mis rudalari mavjudligi va ularni qayta ishlab chiqarish yo'lga qo'yilganligi to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Rossiya imperiyasi elchilik missiyasi rahbari G.I.Danilevskiy (1842 yil) Muhammad Raximxon davrida Shayxijalil tog'ida mis rudasini qayta ishlash yo'lga qo'yilgan deya ma'lumot beradi[11]. Uning hamrohi F.Baziner, Shayxijalil tog'ida "mis, marmar, temir, hattoki oltin borligini, tog' yon bag'ridagi xududda temir rudasi va qumlari uchrashi"ni ta'kidlaydi[12].

Sayohatchi H. Vamberi ma'lumotlariga ko'ra: "Xiva xonligining Oks (Amudaryo) daryosi chap sohilidagi Oveys-karayne (Sultonuvays-T.B.Q) tog'ida qimmatbaho metall rudalar bor. Bu yerda Ollaqulixon davrida(1826–1842 yy.) tajribali bitta hind rahbarligida uch yil davomida tog'da kumush rudasini qayta ishlash yo'lga quyilgan va katta miqdorda metall yetishtirilgan. Xon vafotidan keyin esa hind qochgan yoki o'ldirilgan. Shundan so'ng bu yerda konchilik ishlari taqiqlangan"[13].

G. Blokvel xabar berishicha, Shayx Jalil tog'i Qipchoq, Mang'it, Gurlanning qarama–qarshi tomonida joylashgan. Bu tog'da temir rudasi uchraydi va tog'dan marmar qazib olinadi[14]. Mahalliy manbalarda ham Xiva xonligida metall rudasi qazib olinganligiga urg'u beruvchi ma'lumotlar uchraydi. Xudoyberdi ibn Qo'shmuhammad Xivaqiyning "Dili g'aroyib" asaridagi (1825–1842-yy.) ma'lumotlarga ko'ra, "Bu viloyatda (Xorazm) Gurlon deb ataluvchi shahar bor. Yonidan daryo oqib o'tadi. Daryoning shimoliy tomoni tog'lik (Sultonuvays tog'i– T.B.) bo'lib, u yerda ilgari oltin qazib olingan. U yerda qayroqtosh, qo'rg'oshin, temir va firuza konlari bo'lgan. Aytishlaricha, o'sha tog'da mumiyo ham topganlar. Oltingugurtni esa shahardan janubda, to'rt manzil masofadagi joydan keltirishgan"[15]. "Firdavs ul–iqbol" asarida ham ba'zi ma'lumotlar mavjud: "Tovuq yili o'ris to'ralaridan Davlat Girey va Andrey gubernot o'ttiz ming o'ris bila Shayx Jalil tog'ikim, oltin va kumush ma'danidur, aning orzusi balki, Xorazm fathining istagi bila Orol xududig'a nuzul qildi"[16].

Russov S.P. ma'lumotida, xivaliklar kam miqdorda mis va qo'rg'oshin, oltingugurt va selitra qazib olishgan[17]. Boshqa manbada keltirilishicha, XIX asr 40 yillariga qadar Shayx Jalil tog'ida oltin va kumush konlari bo'lgan, avvallari ushbu konlardan qimmatbaho metallar qazib olingan, keyinchalik ularni qazib olish taqiqlangan[18]. Bu tog' tizmasida zumrad, sardoniks (qimmatbaho targ'il tosh) va boshqa ma'danlar ham bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Руссов С.П. Путешествие из Оренбурга в Хиву Самарского купца Рукавкина в 1753 г. – СПб, 1840. – С.19.
2. Попов А.Н. Сношения России с Хивой и Бухарой при Петре Великом // ЗРГО. – СПб. 1853. Кн. IX. – С. 378-379.

3. История Узбекистана в источниках. Известия путешественников, географов учённых XVI–первой половины XIX в. – Ташкент.1988. – С.92.
4. Поездка из Орска в Хиву и обратно, совершенная в 1740–1741 гг. Гладышевым и Муравиным. – СПб, 1851.
5. Руссов С.П. Путешествие из Оренбурга в Хиву. – С.32-33.
6. Путевые заметки майора Бланкеннагеля о Хиве в 1793–1794 гг.//Вестник РГО. – СПб, 1858. Ч.22. – № 3. – С. 98.
7. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 гг. Николая Муравьева. – М., 1828. Ч. 1-2. – С.19,20, 90.
8. Мушкетов И.В. Туркистан. – СПб, 1886. Т.1. – С. 73.
9. Записки Хрисанфа митрополита Новопатрасского о странах Средний Азии, посетенных им в 1790 г. – М., 1861. – С. 5.
10. Григорьев В.В. Описание Хивинского ханства и дороги труда из Сарайчиков крепости // ЗРГО. – СПб. 1861. Кн 2. – С. 126.
11. Данилевский Г.И. Описание Хивинского ханства // ЗРГО. – СПб. 1851. Кн. V. – С. 70.
12. Савельев П.С. Путешествие г. Базинера через Киргизскую степь в Хиву// Географические известия. – СПб., 1849. № 4. – С.170,207-208.
13. Вамбери А. Очерки Средней Азии. – М., 1868. – С. 123-124, 126.
14. Де Блоквиль. Туркмения и Хива // Туркестанский сборник. Том.34. – С.226.
15. Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. –Тошкент, Ўқитувчи, 1994. – Б.336.
16. Мунис ва Огахий. Фирдавс ул–иқбол (Бахту саодат жаннати). – Тошкент. 2010. – Б.99.
17. Руссов С.П. Известия о Хиве //Туркестанский сборник –Том.386. – С.399.
18. Хива или географическое и статическое описание Хивинского ханства. – М.: – С.36.